

“Kichik biznesga ko‘mak” kreditlash pasporti

T/r	Shartlar va izohlar	
1	Maxsulot maqsadi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-sentyabrdagi PQ-312-son qaroriga asosan kichik biznes tadbirkorlik subyektlari uchun maqsadli mikrokreditlar ajratilish.
2	Qarz oluvchilarga qo‘yilgan talablar	Qarz oluvchi quyidagi talablarning barchasiga mos kelishi kerak: 1. Kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo‘lishi kerak (https://my3.soliq.uz/login?type=legal orqali tadbirkorlarning elektron kalit yordamida shaxsiy kabinetlaridan yoki Kompaniya bilan amalga oshirilgan integratsiya orqali aniqlanadi). 2. Tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yxatidan o‘tganiga bir yildan kam bo‘lmagan bo‘lishi kerak (Tadbirkorlik guvohnomasi orqali yoki Kompaniya bilan amalga oshirilgan integratsiya orqali aniqlanadi). Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida kreditni o‘z vaqtida qaytargan mikrokredit oluvchilar bundan mustasno. 3. Bir yildan kam faoliyat yuritmayotgan bo‘lishi kerak (YATT bo‘lsa patent to‘lovi, yuridik shaxslar hisobvarag‘idagi pul aylanmasidan ham kelib chiqib yoki Kompaniya bilan amalga oshirilgan integratsiya orqali aniqlanadi). Shuningdek, hisobvarag‘idagi pul aylanmasidan ham kelib chiqib, oxirgi 12 oyda faoliyat yuritganligiga baho beriladi. 4. Ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lishi kerak (kredit byurosi ma‘lumotnomasi asosida so‘ndirilmagan muddati o‘tgan qarzdorliklari mavjud bo‘lmagan va oxirgi 12 oyda muddati o‘tgan qarzdorliklari bo‘yicha jami kechikkan kunlari yig‘indisi 90 kundan ortmagan yoki kredit tarixiga ega bo‘lmagan qarz oluvchilar). 5. Kompaniya ta‘minoti (garovi va kafilligi) asosida ajratiladigan mikrokreditlardan foydalanish qamrovini oshirish maqsadida har bir kichik tadbirkorlik subyektiga 1 marotaba mikrokredit ajratilishi hamda mikrokredit olishga ariza bergan shaxslarni moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son qaroriga muvofiq ilgari 100 million so‘mgacha bo‘lgan garovsiz kreditlardan foydalanmagan shaxslarga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.
3	Kreditdan foydalanish mumkin bo‘lmagan maqsadlar	1. Ilgari olingan kredit (lizing)larni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish. 2. Kompaniya mablag‘lari hisobidan kredit ajratilayotgan loyihalar bo‘yicha shaxsiy ehtiyoji uchun (tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun sotib olingan holatlar bundan mustasno, bunda qarz oluvchi tomonidan 1- ilovadagi namunada ko‘rsatilganidek sotib olinayotgan transport vositasini qanday maqsadda foydalanishi va kelgusida kredit to‘liq so‘ndirilgunga qadar ushbu transport

		vositasini begonalashtirmaslik bo'yicha ogoxlantirilganligini tasdiqlanishi kerak) yengil avtotransport vositalarini xarid qilish. Bunda bank tarmog'i kredit komissiyasi sotib olinayotgan transport vositasi qarz oluvchi faoliyatida foydalanish mumkinligini alohida o'rganishi shart. 3. Qimorxona va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish; 4. Qayta moliyalashtiriladigan yoki portfel kafilligi taqdim etiladigan loyiha bo'yicha qarz oluvchining amaldagi kafillik va kompensatsiya shartnomalari mavjud bo'lgan yoki ilgari mazkur yordamlardan maqsadsiz foydalangan bo'lsa.
4	Kredit summasi	300 (Uch yuz) million so'm miqdorigacha Bunda, kreditning 100,0 (Biz yuz) million garovsiz qismi Kompaniya resursi hisobidan qayta moliyalashtiriladi, 200 (Ikki yuz) million qismi esa bank o'z mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.
5	Kredit valyutasi	Milliy valyuta
6	Kredit muddati va imtiyozli davr	Kredit muddati: Asosiy vosita sotib olish uchun – 84 oygacha; Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun – 36 oygacha. Kredit maqsadidan qat'iy nazar kreditni yakuniy so'ndirish muddati 2031-yil 1-oktyabrdan ortmasligi kerak. Imtiyozli davr: Asosiy vosita sotib olish uchun – 24 oygacha; Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun – 12 oygacha.
7	Kredit foizi	1. 100.0 (Bir yuz) million so'mgacha qarz oluvchining ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan hudud toifasidan kelib chiqqan holda quyidagicha: 5-toifa uchun – 18 foiz; 4-toifa uchun – 19 foiz; 3-toifa uchun – 21 foiz; 2-toifa uchun – 23 foiz; 1-toifa uchun – 24 foiz. 2. 100.0 (Bir yuz) million so'mdan yuqori qismi bankning kredit muddati yoki kredit turlari uchun belgilangan kredit foiz stavkalarida.
8	Kredit ajratish shakli	100,0 (Bir yuz) million so'm miqdorigacha faqat pul o'tkazish yo'li bilan 100,0 (Biz yuz) million so'mdan yuqori kreditlar uchun pul o'tkazish yo'li bilan yoki naqd shaklda.
9	Taqdim qilinishi mumkin bo'lgan ta'minot turlari	Kredit summasidan kelib chiqib quyidagicha: A) 100,0 (Bir yuz) million so'mgacha dastlab garovsiz, kredit ajratilgandan so'ng qarz oluvchining ro'yxatdan o'tgan hudud toifasidan kelib chiqqan holda kredit summasini quyidagi miqdorlarida Kompaniya garov depoziti tuziladi: 5-toifa uchun – 80 foiz; 4-toifa uchun – 60 foiz; 3-toifa uchun – 40 foiz;

		1-2-toifa uchun – 20 foiz. B) 100,0 (Biz yuz) million so‘mdan yuqori 300,0 (Uch yuz) million so‘mgacha amaldagi garov bilan ishlash bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjat talablari doirasida qat’iy ta‘minot, ya’ni noturar ko‘chmas mulk, transport vositalari yoki depozit mablag‘lari.
10	Talab qilinadigan hujjatlar	- Buyurtmanoma; - Loyihani o‘zini o‘zi qoplashi ko‘rsatilgan pul oqimlari prognozi; - Vakolatli boshqaruv organining kredit olish uchun roziligi (yuridik shaxslar uchun) - Tovar va mahsulotlar bo‘yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi; - Faoliyat joyini asoslantiruvchi hujjatlar yoki kredit mutaxassisi tomonidan faoliyat joyidagi kassa apparati yoki savdo terminalidan chiqarilgan cheklar asos sifatida olinishi mumkin; - Ta‘minot bilan bog‘liq hujjatlar (Kreditning 100 mln so‘mdan ortiq qismi uchun) - Loyiha hususiyatidan kelib chiqib boshqa hujjatlar ham talab etilishi mumkin.